

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Цихан В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управления. Москва, 2003. – № 5.
2. Enright M.J. Survey on the Characterisation of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy. University of Hong Kong, 2000, -21p.
3. Филиппов П. Кластеры конкурентоспособности // Ж. «Эксперт Северо-Запад»-2003.-№43(152).С.24. [http://stra.teg.ru/ienta/innovation/1086/print\(17/11/2003\)](http://stra.teg.ru/ienta/innovation/1086/print(17/11/2003)).
4. Захаров В. Промышленные кластеры и экономический рост//Проблемы теории и практики управления. – Москва, 2006. – № 12.
5. Solvell O, Lingvist G, Ketels Ch. The Cluster Initiative Greenbook. The Competitiveness Institute/ VINNOVA, Gothenburg, 2003. – 94 p.

## **HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIALARNI AHAMIYATINI OSHIRISH**

**Meyliev O.R.**

*Toshkent moliya instituti,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*

**Gofurova K.**

*Toshkent moliya instituti  
moliya fakulteti talabasi*

Bugungi kunda mamlakat barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash uchun muayyan hududlarning iqtisodiy-moliyaviy tizimini tadqiq qilish, ichki va tashqi omillari tahlili asosida xulosa va amaliy takliflar berish ustuvor vazifadir. Butun dunyo mamlakatlarida sodir bo'layotgan moliyaviy inqiroz ham muayyan hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatiga alohida e'tibor qaratish kerakligi, iqtisodiy taraqqiyotni muntazam kuzatib borish va xalqaro standart o'zgarishlarga tayyor turishni ta'minlash mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Hududlarning geografik o'rni, tabiiy resurslar salohiyati va tarixiy xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu sababdan mamlakat mintaqalarida barqaror iqtisodiy muhit yaratish va aholining ijtimoiy hamda moliyaviy ta'minlanishi uchun samarali mintaqaviy iqtisodiyotdan foydalanish darkor. Barqaror iqtisodiyotga erishishda investitsiyalar, jumladan xorijiy va mahalliy investitsiyalarni hududlar iqtisodiyotiga jalb qilish, mintaqalarning o'z imkoniyatlaridan foydalanib, ma'lum bir sohalarga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan shu sababli hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish to'g'risida bir necha qaror va farmonlar imzolandi. Shulardan biri bu "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-459-son qaroridir. 28.12.2022-yilda bu qaror kuchga kirib, 2023-2025 yillar uchun quyidagilar tasdiqlandi:

- Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari;

- Tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari.

Shuningdek, 2023 yil uchun quyidagilar tasdiqlandi:

- Investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish bo'yicha yig'ma manzilli dastur;
- Ishga tushiriladigan yirik ishlab chiqarish ob'yektlari va quvvatlarining manzilli ro'yxati;

- Strategik investitsiya loyihalari ro'yxati;

- O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar jalb qilingan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro'yxati.

- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro'yxati va boshqalar ([//https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi)).

Bu holatda davlat investitsiya siyosati hudud, tarmoq va korxonalar investitsiyalaridan iborat bo'lib, o'zaaro bog'liq. Hududlar investitsiya siyosati sarflashda hudud, aholi va investorlarning manfaatlarini ko'zlagan hududlarda olib boriladigan investitsion chora-tadbirlar majmuyidir.

Tarmoq investitsion siyosati bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi sanoat maxsulotlarini eksport qilishni oshirish, import maxsulotlari o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishbi yo'lga qo'yish va ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya bilan qo'llab quvvatlashdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan hududlarga investitsiya yo'naltirish orqali iqtisodiy tarmoqning bir bo'g'inida rivojlanishni barqarorlashtirish va bu mintaqada istiqomat qiluvchi aholi qatlamining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalarning hududlarda tashkil etilgan sanoat va tijorat korxonalariga jalb etilishi davlat investitsion siyosatida alohida o'ringa ega bo'lib, quyidagi rasmda 2022 va joriy yilning yanvar-mart oylarida mintaqalarga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Mintaqaviy investitsiyalar loyihasi asosida 2022 va 2023 yilning birinchi choragida kiritilgan xorijiy investitsiyalarning puldagi ifodasiga ko'ra, Toshkent shahri(347,5 va 1238,5 mln AQSH dollar), Toshkent viloyati (195,8 va 482,4 mln AQSH dollar) va Samarqand viloyati (95,3 va 514,2 mln AQSH dollar) ga kiritilgan investitsiya hajmi 2-rasmda keltirilgan boshqa hududlarga nisbatan ko'pdir.

Ushbu hududlarning yuqori ko'rsatkichga erishishining sababi so'nggi yillarda Sh. Mirziyoyev tomonidan hududiy tadbirkorlik va kichik biznesni mintaqalarda rivojlantirishga berayotgan e'tibor natijasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 31.01.2023 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-39 sonli qarorida aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, mahallalarda


kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish uchun bir necha ustuvor maqsadlar qo'ygan.

Farg'ona viloyatiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar joriy yilda 719,9 mln AQSH dollari tashkil etib, nodavlat sektoriga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi tufayli, bu hajm jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 98,7 %ni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Andijon 428,5 mln, Buxoro 317,1 mln, Namangan 379 mln, Navoiy 246,2 mln, Jizzax 399,2 mln, Xorazm 190,2 mln, Sirdaryo 285,3 mln, Surxondaryo viloyatlariga 250,2 mln AQSH dollarda xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga 40,5 mln AQSH dollari hisobida xorijiy investitsiya kirirtilgan. Kiritilgan investitsiya va o'zlashtirilgan kreditlar qurilish sohasiga ta'luqli hisoblanib, geografik o'rni cho'l zonasi hududida va ekologik jihatdan sust hudud bo'lganligi sababli kirirtilgan investitsiyalar hajmi mamlakatimizning boshqa viloyatlariga nisbatan oz hajmni tashkil etadi.

Ma'lumki, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun hududlarda olib boritilayotgan iqtisodiy siyosatning o'rni muhimdir. Shu sababdan mamlakat hududlarida joylashgan tijorat va sanoat korxonalarining rivojlanishi uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish darkor. Chunki, investitsiyalar, jumladan xorijiy, mahalliy va boshqa turdagi investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotida barqarorlikni ta'minlab beruvchi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ijobiy tomonga o'zgartirish kaliti hisoblanadi.



**1-rasm. Mintaqaviy investitsiya loyihalari doirasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish, mln AQSH dollarda**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bugungi kunda hududlar iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga alohida urg'u berilayotganligiga qaramasdan, qator muammo va kamchiliklar mavjud. Shu sababdan olib borilgan izlanishlar asosida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga oid quyidagi takliflarni keltirish o'rinlidir:

- ✓ xorijiy investitsiyalarni kichik hududlar, qishloq zonalariga jalb etish;
- ✓ kichik biznes va hududiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga investitsiya va xorijiy investitsiya savodxonligini oshirib borish;
- ✓ texnologik asbob-uskunalarni zamon talabiga keltirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar ko'rgazmasiga jalb etish;
- ✓ xorijiy investorlar va tashabbuskorlarga ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalar bo'yicha yordam berish uchun konsalting tashkil etish kabilardir.

## **МИНТАҚАЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА МАҚРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР**

**Холбекова Ферузахон Расуловна**  
*и.ф.д (PhD), Тошкент тўқимачилик ва  
енгил саноат институти*

**Рахимжонов Дилмурод Забихулла ўғли**  
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети талабаси*

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида иқтисодий ислохотларни амалга ошириш ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг устувор вазифаларидан бири - бу ишлаб чиқариш корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш, ташқи ва ички бозорлар учун сифатли, рақобатбардош маҳсулотларни истеъмолчиларга ўз вақтида етказиб бериш ва сотишда замонавий савдо хизматларини ташкил қилиш ҳамда ушбу хизмат имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Янги Ўзбекистонни ривожлантириш тараққиёт стратегиясининг бешта устувор йўналишларидан бири “миллий иқтисодиётни ривожлантириш, унинг ўсиш суръатларини замон талаблари даражасида таъминлашга йўналтирилган макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш, иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш бўйича институционал ва таркибий ислохотларни давом эттириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik ривожини рағбатлантириш, ҳудудлар, туман ва шаҳарларни комплекс ва мутаносиб ҳолда ижтимоий-иқтисодий тараққий эттириш, инвестициявий муҳитни яхшилаш орқали мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш” [1]